

## Ovqat masalasi

Turkistonda ovqat-g'alla masalasi to'g'ri bir yo'lg'a qo'yilmov sababli musulmonlar g'oyat fojeali kunlar kechirdilar va hamon kechirmakdalar. Ochliq va oning ustiga, shunday ochliq natija mash'umasi bo'lg'an tif xastalig'i, vabo va har xil boshqa o'ruvlar, bunlar musulmonlarni tamom xarob qildilar. O'tgan sana Turkistonda oshliq va meva bo'lmadi. Shu sababdan bu falokatga uchradi. Faqat agarda vaqtida teyushli choralari ko'rsa, falokat bu qadar buyuk bo'lmas edi. Turkistonda oshliq niqdori yo'q deyulsada bor edi, faqat vaqtida tadbir qilinmov sababli bor oshliq suiiste'molga uchradi. Boylar oshliqni yerga ko'mib tutdilar va oz-ozg'ina chiqarub bahoni oshirib sotdilar. Shuning uchun kambag'al fuqaro oni olmoqdan ojiz qoldi. Oz kam aqchasi borlarida qimmat bahog'a oshliq olib butun aqchalaridan va nihoyat mollaridan ayrildilar, chunki tomoqlarini asramoq uchun oxirgi hayvonlarig'a qadar sotub bitirdilar. Shuning uzriga Ho'qand, Samarqand va Buxoro voqealari bo'lib bu taraf aholisi tog'inda og'ir hollarga duchor bo'ldilar.

Bu yil qazoi osmoni o'lmasa, oshliq xayoli ko'b bo'lsa kerak. Chunki xalq ochliqdan ko'b jafu chekuv sababli paxta eka turg'an joylarina ham bug'doy ekdilar. Paxta yerlarining 90 va yohud 95 protsenti bug'doy ekulgan. Shuning ustiga bu yil Sirdaryodan olub, Farg'ona, Samarqand va Zaqaspi oblastlariga qadar har yerda ekinda, mevada ekilg'an. Qo'shnilarimizdan Buxoro, Xiva va Eron mamlakatlarida ham oshliqning g'oyat darajada yaxshi unganlig'i anglashila. Shunday bo'lsa bu yil xalq oshliqg'a to'yib o'zg'an yil ko'rgan jabr-jafolarini unutsa kerak. Faqat vaqtida teyushlik chora va tadbirlari qilinmasa bu yil ham shu iste'mol bo'lib bir xil xalqning och qolmog'i mumkindir. Markaz Turkiston komitetiga oling'an ba'zi ma'lumotg'a ko'ra Turkistonda oshliq yetushgan qit'alarda ba'zi xalqlar ekinlarini yetarlik qadar ayrib qolg'anini yerga ko'malar ekan. Bu esa bu kungi ijtimoiy hayotda buyuk bir jinoyatdir. Bolxosa Orenburg', Qafqaz yo'llari qopali bo'lib xalq ovqatsizliqdan, ochliqdan qirilub yotgan zamonda bu ish jinoyatdir.

Mana bu holdan qutilmoq va mamlakatdagi xalqning rohat va saodatini ta'min etmak uchun birdan bir chora bo'lsa ulda har yerda darhol ovqat komitetlari tuzib bu yilg'i xirmonni ucheta (hisobqa) olushdir. Oblast, uyezd ham va volost komitetlari tuzib ishga kirishilarga teyush. Bunlar yetushgan ekinlarni hisobqa olsinlar. Ekinning o'z egasiga yetarlik miqdor g'allasini qoldirub ortqanini teyushlik bahosi ila bir joyga to'plasunlar. Ozug'i bo'lmag'an xalqlarg'a shundan taqsim qilib ovqat bera boshlasunlar. Qolg'anini qora kunlar uchun saqlasunlar. Ushbu tariqa komitetlar tuzilib bu yilg'i oshliq bir yerga yig'ilub, shundan kambag'al fuqaroga teyushlik ma'ndil bahosi ila oziq berilmasa ochliqdan o'lishlar hanuz davom etajak. Chunki oshlig'i bor odamlar, o'zlaridan ortqan oshliqlarini yerga ko'mib ko'b qimmatbaho ila sotub kundan kun oshliqning bahosini ko'tarachaklardirki, buning natijasi tog'inda buyuk falokat va to'polonlarni mujib bo'lachadir. Mana shuning

uchun Vatan, millat va kambag'al fuqaro haqini tanig'an turkistonli qardoshlarimizga hozirdan bu yil yetushgan oshliqni uchetqa olub adolat bo'yincha tuzi' qiluv yo'liga kirishuvlarini tavsiya qilamiz. Bu xususda hukumat tarafidan ham yaqinda ta'limot nashr etilsa kerak.

Turkiston jumhuriyatining millat majlisi a'zolaridan:

*Hoji Safo Jo'raboyev. "Ulug' Turkiston" gazetasi*  
*1918-yil 4-iyun. 100-son.*  
**(G.O.)**